

## ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG'LOVCHI VOSITALAR

*Samariddinova Dilnoza Yusupovna,*

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani 80- umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona  
tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**B1**

**o'quvchi ona tiliga oid tushunchaga ega bo'lishi, o'z ona tilida hamda birorta  
xorijiy tilda dastlabki tushunchalarni ishlata olishi;**

**mavzu bo'yicha tavsiya etilgan o'quv topshiriqlari va o'qituvchining savollariga  
yozma va og'zaki javob berishda ta'lim olayotgan til me'yorlariga riosa qilish; kichik  
guruqlar bilan ishslash jarayonida faol ishtirok etish.**

**B1+**

**maktab, mahalla, jamoat joylari, oilada, sinfda o'rtoqlari bilan ma'naviy-axloqiy  
me'yorlarga amalga qilgan holda muloqotga kirishish.**

**Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi:**

**B1**

**o'quvchi ona tili fanining yangiliklari, rivojlanishi bo'yicha respublikamizda  
amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan  
foydanib, zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi;**

**darslikning kirish qismida berilgan ko'rsatmalar asosida o'rganilgan mavzu  
matniga reja tuza olish;**

**matndan foydanib savollarga javob topish, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni  
bajara olish.**

**B1+**

**mediamanbalardan izlab topilgan ma'lumotlarni saralash, qayta ishslash,  
saqlash, ulardan samarali foydalana olish;**

**jadval, diagramma, sxemalar tuza olish, tushuncha, qoidalarni topa olish;**

**mediavositalaridan ona tili haqidagi ma'lumotlar va axborotlarni izlab topa olish.**

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**Darsning blok sxemasi:**

<b>№</b>	<b>Darsning qismlari</b>	<b>Belgilangan vaqt.</b>
<b>1.</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2.</b>	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
<b>3.</b>	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
<b>4.</b>	Mustahkamlash	12 daqiqa
<b>5.</b>	Baholash	2 daqiqa
<b>6.</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa

**Darsning maqsadi:**

- o‘quvchilarni 9-sinfga mo‘ljallangan „Ona tili “ darsligi bilan tanishtirish;
- darslikning maqsadlari va vazifalari haqida tushuncha berish;
- darslikdagi materiallarni o‘rganish usullarini tushuntirish;
- o‘quvchilarga o‘rganiladigan ma'lumotlar haqida tushunchalar berish

**Dars materiallari va jihozlari:**

- 1.,, Ona tili “ darsligi. .
- 2.,, Mavzuga oid chizmalar
- 3.Doska, bo‘r, daftar.
- 4.Tarqatma material: darsda o‘rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

**I. Tashkiliy qism:**

5.Sinfda o‘quvchilarni darsga jalb qilib, ishchi muhitni yaratish.

**6.Sinf holati bilan tanishish va davomatni aniqlash**

**Darsning birishi**

*Darsning tasgiliy qismi:*

- o'quvchilar bilan salomlashish
- o'quvchilar davomadini aniqlash
- sinfning darsga tayyorgarligini tekshirish

*Dars jihozlari:*

- ✓ tarqatma materiallar
- ✓ kompyuter
- ✓ proyektor
- ✓ slayd
- ✓ reklama roligi
- ✓

*II. Darsning mazmuni:*

7. Darslikning dasturi, maqsadlari va vazifalari.

8. Darslikdagi materiallar tizimi va uni o'r ganish uslubiyati va usullari.


9. O'r ganiladigan ma'lumotlar hayotiy bog'liqligi..


**III. Dars mazmunini ro'yobga chiqarish ustida ishslash:**

11. O'qituvchining 9-sinf dagi „ona tili“ fani vazifalari va xususiyatlari, darslikdagi materiallar tizimi, uni o'r ganish uslubiyati va usullari to'g'risida tushuntirish.


3- Yangi dars bayoni:

1-topshiriq. Quyidagi qo'shma gap qolipida gaplar tuzing.

1) Agar  -sa,

2)  -ki,

3) , chunki

4) , shuning uchun

**2-topshiriq. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.**

#### *IV. Mustahkamlash.*

##### **“Menga sòz bering” metodi**

Bu metod òquvchilarda òrganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan mavzu yoki tanqid etilayotgan mavzu bøyicha shaxsiy fikr - mulohazalarini bildirish, fikrlarni dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish kònigmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U òqituvchi va òquvchilar òrtasidagi ta'limiy hamkorlikni qaror toptirishga yordam beradi. Darslarda bu metodni qöllash orqali òquvchilar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida öz fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bòladi.

89-mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

1. Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. (Said Ahmad)
2. Tilagim shuki, tog‘a, ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo‘lmisin. (Oybek)
3. Ikkinchи masala ancha jiddiy, shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi. (Murod Muhammad Do‘s) 4. Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro‘yi bir pul bo‘ladi. (Olimjon Xoldor)

90-mashq. Matnni o‘qing. Qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

Ongli kishi deyilsa, ongga ega, aql-idrokli odam tushuniladi. Ongli hayot desak, bir maqsadga yo‘naltirilgan turmush ifodalananadi. “Ongli” so‘zi shunday odamlarni bildiradiki, ular voqelikni, ijtimoiy hayotni, o‘zining mavqeyi hamda tarixiy va fuqarolik burchini yaxshi tushunadilar. (“Vatan tuyg‘usi” darsligidan)

Bilib oling. Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog‘lanadi: 1) ergashtiruvchi bog‘lovchilar; 2) ko‘makchili qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar); 3) -ki yuklamasi; 4) nisbiy so‘zlar (kim – o‘sha, nima – shu, qayer – shu yer va boshqalar); 5) deb so‘zi va boshqalar.

**“Reja” metodi** Bu metod òquvchilar tomonidan muayyan bilim yoki boblar bòyicha òzlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatini tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish kònigmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qöllash òquvchilardan òrganilayotgan mavzu mazmunini puxta òzlashtirish, asosiy góyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bòlishni taqozo etadi. Metod òquvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkoniyatini beradi. Uni ma'naviy ma'rifiy ishlarini tashkil etish, pedagogik amaliyotni qöllash yanada samarali hisoblanadi. Bu metodda har bir guruh òz mavzulari yuzasidan reja tuzadilar va doskada namoyish etishadi. Va shu tariqa baholanadi.

#### “Qarama - qarshi” metodi

Metod òz mohiyatiga kòra òquvchilar tomonidan òzlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bòlgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Òquvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

Muhim tushunchalar	Muhim bo'lмаган тушунчалар

91-mashq. O‘qing, ergashgan qo‘shma gaplarni topib, ko‘chiring.

1. Dalalarga chiqing, bahri dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz. (Oybek) 2. Hayotimda kim uchundir foydali inson bo‘lsam, bu mening eng katta yutug‘imdir. 3. Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o‘tkazmaslik lozim. 4. Ikkovi ham men bilan qadrdonlardek so‘rashdi, shuning uchun darrov suhabatimizga jon kirdi. (Abdulla Qahhor)

92-mashq. Qismlari o‘zaro chunki, shuning uchun bog‘lovchi vositalari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarga to‘rtta misol keltiring. Bosh va ergash gaplarni aniqlang.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o‘qitish o‘quv topshiriqlarini o‘quvchilarning birgalikda bajarishi va hamkorlikda o‘qishidan iborat. Ushbu texnologiya olingan bilimlar asosida

o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv bahsi va munozaralar o‘tkazishni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi hamkorlikda o‘qitish asosida darsni tashkil etish uchun mavzularni aniqlab, o‘quvchilar bajarishi uchun topshiriqlar, dars rejasini ishlab chiqadi, o‘tilgan va yangi dars mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar bilimini aniqlash uchun test topshiriqlarini tuzadi. Komanda bilan o‘qitish metodida o‘quvchilar teng sonli 2 komandaga ajratiladi. Komanldalarga bir xildagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarni har bir komanda a’zolari birgalikda bajarishadi. Bu texnologiyada o‘quvchi bilimining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritgan natijasi bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Ana shunday qilinganida o‘quvchi o‘zi erishgan natijadan butun komanda manfaatdor bo‘lishini aniqlab, ko‘proq bilim olishiga va izlanishga intiladi.

**“Har kim har kimga o‘rgatadi”**

Bu usuli o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilimlarni o‘zlashtirgach o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish usulidir. Bu usulning afzal tomonlari shundaki, o‘quvchi ushbu berilgan mavzuni diqqat bilan o’rganib, bor kuchi

1. Ergash gap bosh gapga qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi?	
2. -ki bog‘lovchi vositasi qaysi gapning tarkibida qo‘llanadi?	
3. Shu sababli, chunki bog‘lovchi vositalari qaysi gap tarkibida qo‘llanadi va qanday tinish belgisi bilan yoziladi?	
4. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplarga misollar keltiring.	

bilan harakat qiladi. Chunki unga o‘z sheriklariga ma’lum ma’lumotlarni yetkazish topshirilgan bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida Ma’sulyatli bo‘lishiga ko‘maklashadi.

### “Xatolarni top”

Bu o'yinda o'quvchilar to'g'ri matn bilan tanishgan bo'lishlari kerak. To'g'ri matn berilib 10 minut tayyorlanishiga vaqt beriladi. Keyin buzilgan matn beriladi. O'quvchilar 1 kishi, 2 kishi, 4 kishi bo'lib matn ustida ishlashlari mumkin. Kim belgilangan vaqtda ko'proq xatoni aniqlay olsa, o'sha o'quvchi yoki guruh g'olib hisoblanadi.O'rgatish texnologiyasini o'zida mujassamlashtirgan differensiyal (tabaqalashtirilgan) ta'lidan foydalanish maqsadga muvofiq, yani fanga qiziquvchilar soni kamayib ketishini bartaraf etishga omil bo'ladi.O'quvchilar topshiriqlarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy ravishda tanlaydilar. Shu tariqa har bir o'quvchining o'z imkoniyati va qobiliyatini rivojlantirib borishiga zamin yaratiladi. Bugun quyi darajadagi savolni tanlagan o'quvchi, o'zlashtirish darajasini oshirgan holatda, ertaga yuqoriqoq darajadagi savolni tanlashga, aksincha bugun yuqori darajadagi savolni tanlagan o'quvchi ertaga past darajaga tushib qolmaslik uchun harakat qiladi. Sinfdagagi barcha o'quvchilarning faolligi oshadi. Mazkur texnologiyada bilimlarni nazorat qilish va baholash individual tarzda bajarilgan o'quv topshiriqlariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

V. Dars yakunlarini chiqarish: O'qituvchi o'quvchilar bajargan yozma va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi va yuzaga kelgan savollarga javob qaytaradi.

*VI. Uyga vazifa: O'rganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.*